

KLASSIK ADABIYOTIMIZDA AYOL OBRAZLARI VA SUYIMA G'ANIYEVANING ULARNI TALQIN ETISHDAGI YONDASHUVI

O'rалова Marjona Murodilla qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti,

Tarix (Markaziy Osiyo xalqlari tarixi) yo'nalishi 2-kurs talabasi.

B.I. Zokirov

Ilmiy rahbar. "Markaziy Osiyo xalqalari tarixi"

kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15707624>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek klassik adabiyotidagi ayol obrazlari tahlil qilinib, ularning badiiy-estetik mazmuni, ma'naviy-falsafiy mohiyati ochib berilgan. Ayniqsa, ayol siyosining jamiyatdagi o'rni, axloqiy fazilatlari va timsol sifatidagi yuksak maqomi Suyima G'aniyeva ilmiy izlanishlari asosida yoritilgan. Maqolada G'aniyevaning Navoiy asarlarida uchraydigan ayol obrazlarini talqin etishdagi o'ziga xos yondashuvi tahlil qilinadi. Shuningdek, bu obrazlarning zamonaviy tafakkur bilan bog'liqligi va bugungi kun uchun dolzarbligi haqida fikr yuritiladi. Tadqiqot klassik merosga yangicha nigoh bilan qarashga xizmat qiladi va ayol obrazining adabiyotshunoslikdagi o'rni haqida chuqur tahliliy mulohazalar beradi.

Kalit so'zlar: Suyima G'aniyeva, mumtoz adabiyot, ayol obrazi, Alisher Navoiy, adabiy tahlil, simvolizm, o'zbek filologiyasi, adabiyotda gender.

Abstract. This article analyzes the female images in classical Uzbek literature, focusing on their artistic, ethical, and philosophical aspects. Special attention is given to the scholarly approach of Suyima G'aniyeva, who interpreted these female characters not only as symbolic figures of love and beauty but also as representations of intellect, fidelity, and spiritual strength.

The study explores G'aniyeva's interpretation of women in the works of Alisher Navoi and emphasizes the relevance of these images in contemporary literary and cultural discourse.

Through this lens, the article sheds light on the significant role of women in classical literature and highlights the necessity of a modern perspective on traditional female characters.

Key words: Suyima G'aniyeva, classical literature, female image, Alisher Navoi, literary analysis, symbolism, Uzbek philology, gender in literature.

Аннотация. В статье анализируются женские образы в узбекской классической литературе, раскрывается их художественно-эстетическое содержание, духовная и философская сущность. В частности, на основе научных исследований Суйимы Ганиевой освещается роль женского образа в обществе, его моральные качества и высокий статус как символа. В статье анализируется уникальный подход Ганиевой к интерпретации женских образов в произведениях Навои. Также обсуждается связь этих образов с современным мышлением и их актуальность для сегодняшнего дня.

Исследование призвано по-новому взглянуть на классическое наследие и дает глубокие аналитические соображения о роли женского образа в литературоведении.

Суйима Ганиева, классическая литература, женский образ, Алишер Навои, литературный анализ, символизм, узбекская филология, гендер в литературе.

Ключи слова: Суйима Ганиева, классическая литература, женский образ, Алишер Навои, литературный анализ, символизм, узбекская филология, гендер в литературе.

Kirish

O‘zbek klassik adabiyoti ko‘p asrlar davomida xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan. Bu adabiyotda ayol obrazlarining talqini, ularning jamiyatdagi o‘rni, axloqiy-ma’naviy fazilatlari poetik obrazlar orqali yuksak darajada ifoda etilgan. Ayniqsa, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mutafakkirlar asarlarida ayol siyoshi nafaqat sevgi timsoli, balki aqli, vafodor, mehribon va muqaddas zot sifatida aks etadi.

Ushbu badiiy obrazlarni chuqur va tizimli tahlil¹ qilgan adabiyotshunos olima Suyima G‘aniyeva bo‘lib, u o‘z ilmiy izlanishlarida ayol obrazining estetik va falsafiy mazmunini yoritib bergen. Uning ilmiy qarashlari orqali biz klassik adabiyotdagi ayol timsollariga yangicha, zamonaviy nuqtayi nazardan qarash imkoniyatiga ega bo‘ldik.

Klassik adabiyotimizda ayol obrazlarining badiiy talqini

Klassik adabiyotda ayol siyoshi ko‘pincha go‘zallik, sadoqat, ma’naviy poklik, fidoyilik kabi fazilatlar bilan uyg‘un holda tasvirlanadi. Alisher Navoiy g‘azallarida ayol obrazlari nafaqat ilohiy muhabbat timsoli, balki komil inson g‘oyasining bir qismi sifatida ifodalanadi.²

Ular shunchaki go‘zal ma’shuqalar emas, balki shoir qalbidagi ilohiy nurni aks ettiruvchi ruhiy timsollardir. Masalan, Navoiy g‘azallarida ayol quyoshga, oyga, gulga, sharobga o‘xshatiladi. Bu o‘xshatmalar orqali shoir nafaqat ayolning go‘zalligini, balki uning ta’sirchanligini, ruhiy qudratini ko‘rsatadi. “Layli va Majnun” dostonida Layli obrazi go‘zallik timsoli bo‘lishi bilan birga, aql va irodaning kuchini ham ifodalaydi. Suyima G‘aniyeva o‘z tadqiqotlarida klassik adabiyotdagi ayol obrazlarini chuqur tahlil qilib, ularning tarixiy, ijtimoiy, badiiy va falsafiy ahamiyatini ochib berdi.³

Uning fikricha, ayol obrazlari orqali shoirlar jamiyatdagi axloqiy me’yorlarni belgilab, ayol zotini muqaddaslik darajasiga ko‘targanlar. G‘aniyeva asarlarida ayol obrazlari ikki asosiy yo‘nalishda tahlil qilinadi: 1. Ideal ayol siyoshi sifatida. 2. Ilm-ma’rifat va aql timsoli sifatida.

Bugungi kunda klassik adabiyotdagi ayol obrazlariga yangicha nazar bilan qarash ehtiyoji kuchaymoqda. Gender tengligi, ayolning jamiyatdagi faolligi, ilm-fan va ijtimoiy hayotdagi o‘rni tobora oshib borayotgan hozirgi davrda, G‘aniyeva tahlil qilgan klassik ayol obrazlari dolzarb ahamiyat kasb etadi.⁴

Suyima G‘aniyevanining izlanishlari bu borada yosh tadqiqotchilar uchun puxta nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, u “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” kabi dostonlardagi ayol siymolarini qadimiy rivoyatlar, diniy-falsafiy manbalar, tarixiy sharoitlar bilan bog‘lab tahlil qiladi. Bu yondashuv klassik adabiyotdagi ayol obrazlarini oddiy estetik qobiq emas, balki murakkab falsafiy va madaniy hodisa sifatida ko‘rishga yordam beradi.

¹ Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.,140-b.

² G‘aniyeva S. Sharq mumtoz adabiyotida komillik konsepsiysi. – T.: Mumtoz so‘z, 2012.,200-216b.

³ Alimova K. Dostonlarda ayol obrazlari: matn va kontekst. – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, 2023.,100-105b.

⁴ Alisher Navoiy. Xamsa (Layli va Majnun, Farhod va Shirin).,78-83b.

Suyima G‘aniyeva ilmiy maktabi doirasida bugungi kunda ham bir qancha tadqiqotchilar klassik adabiyotdagi ayol obrazlarini yangi metodologiyalar asosida o‘rganmoqda. Xususan: Xolida Ziyoyeva – Navoiy g‘azallaridagi ruhiy holatlar va ayolning psixologik portretlari bo‘yicha tadqiqotlar olib brogan. Zilola Xo‘janova – Mashrab va Hofiz she’riyatida ayol obrazlari orqali ijtimoiy g‘oyalalar aksini o‘rganmoqda. Dilbar Mamatova – o‘zbek dostonlarida ayollar faoliyati va ijtimoiy pozitsiyasini gender yondashuv asosida tahlil qilgan. Bu izlanishlar Suyima G‘aniyeva tomonidan belgilangan metodologik yo‘nalishlarning bugungi adabiyyunoslikda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa

O‘zbek klassik adabiyotdagi ayol obrazlari nafaqat sevgi timsoli, balki sabr, fidoyilik, aql-zakovat va axloqiy yetuklik ramzi sifatida tasvirlangan. Layli, Shirin, Zulayho kabi siymolar orqali adiblar ayolning ruhiy dunyosi va jamiyatdagi o‘rnini yuksak badiiylik bilan ifoda etganlar.

Akademik Suyima G‘aniyeva bu obrazlarni matnshunoslik, tarixiylik va estetik yondashuvlar asosida chuqur tahlil qilib, ularning badiiy va ijtimoiy ahamiyatini oolib berdi.

Uning ilmiy qarashlari klassik asarlarga zamонавиј нуқтai назардан yondashishga asos bo‘ldi va bugungi tadqiqotchilar uchun muhim zamin yaratdi. Shu bois klassik adabiyotdagi ayol siymolarini o‘rganish bugungi kun uchun ham dolzarb ilmiy va ma’naviy ahamiyatga ega.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. G‘aniyeva S. Alisher Navoiy va ayol obrazlari. – Toshkent: Fan, 1979.
2. G‘aniyeva S. Navoiy va Sharq mumtoz adabiyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 1991.
3. Alisher Navoiy. Xamsa (Layli va Majnun, Farhod va Shirin).
4. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
5. Qurbonov Sh. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: TDPU, 2015.
6. Alimova K. Dostonlarda ayol obrazlari: matn va kontekst. – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, 2023.
7. Muhammadieva M. O‘zbek romantik she’riyatida ayol obrazi. – T.: Fan va taraqqiyot, 2021.
8. Ayniy S. Sharq ayoli siymosi mumtoz asarlarda. – Dushanbe, 2018.
9. G‘aniyeva S. Sharq mumtoz adabiyotida komillik konsepsiysi. – T.: Mumtoz so‘z, 2012.